

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNING TA'MINLANISHI VA XOTIN-QIZLAR
IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALASIDAGI ISLOHOTLAR

Bahromova Shohsanam Alijon qizi

*Farg'ona Davlat universiteti Tarix fakulteti
Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollarning mamlakat rivojiga tutgan salohiyatini oshirish maqsadida gender tenglikka doir qonunchilikning mustahkamlanayotgani, turli xil qonun va farmonlarning qabul qilinayotgani, ularning bu boradagi ijobiy ta'siri, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishda har qanday darajada e'tibor berilayotgani va ularning bugungi samaralari ko'rib chiqiladi. Shu qatorda maqola doirasida O'zbekiston qonunchiligidagi gender tenglikka oid huquqlarning ta'minlanishi borasidagi izchil ishlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Xotin-qizlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, gender tenglik va gender adolat muammolari, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti, Shavkat Mirziyoyev, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti.*

Abstract. *In this article, in the Republic of Uzbekistan, in order to increase the potential of women for the development of the country, the legislation on gender equality is being strengthened, various laws and decrees are being adopted, their positive effect in this regard, attention is being paid at any level to increasing the social activity of women, and their today's effects are considered. In addition, within the framework of the article, consistent work on the provision of rights related to gender equality in the legislation of Uzbekistan was also touched upon.*

Keywords. *Women, ongoing reforms, issues of gender equality and gender justice, "Family and Women" Research Institute, Shavkat Mirziyoev, Dialogue of leading women of Central Asian countries.*

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida

ham ularning o'rnini beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratiya, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir⁴³.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rnini, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda davlat rahbari boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'yilmoqda. Binobarin, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta'minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o'z isbotini topgan. Bugungi kunda "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti mamlakat xotin-qizlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarning bir qismi bo'lib, unda gender tengligini ta'minlash sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, aholi o'rtasida gender qadriyatlarini targ'ib qilish, mazkur masalalar bo'yicha tajriba almashish asosiy maqsad sifatida belgilangan⁴⁴.

Mamlakatda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki

⁴³ **Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. 22.04.2024.**
<https://oltinsoy.uz/uz/blog/gender-tengligi/920>

⁴⁴ Maxkamova Z. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 4.

barobarga ko'paydi"⁴⁵, – deb mamlakatda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Ilk bor Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti tashkil etildi⁴⁶. Gender masalalari yuzasidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida yuritayotgan ilg'or siyosati natijasida 2021-yilda birinchi bo'lib muloqotga O'zbekiston raislik qiladi⁴⁷.

O'zbekistonda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir 30 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"⁴⁸ hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"⁴⁹ Qonunlar qabul qilindi. 2022-yilning 1-mart sanasida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵⁰gi Prezident Farmoni hamda joriy yilning 7-martida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵¹ Prezident Farmoni xotin-qizlar bilan ishlash tizimining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi, "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur"⁵² qabul qilindi.

O'z navbatida, gender tengligini ta'minlash bo'yicha muammolar ham yetarlicha. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni

⁴⁵ Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida. 11.01.2023. <https://parliament.gov.uz/articles/287>

⁴⁶ Bishkekda Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari o'rtasidagi muloqot yig'ilishi bo'lib o'tmoqda. 23.05.2024. <https://kun.uz/news/2024/05/23/bishkekda-markaziy-osiyo-davlatlari-yetakchi-ayollari-ortasidagi-muloqot-yigilishi-bolib-otmoqda>

⁴⁷ Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining ilk uchrashuvi bo'lib o'tdi. 24.12.2020. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/24/central-asia/>

⁴⁸ "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"⁴⁸gi O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494849>

⁴⁹ "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"⁴⁹gi O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O'RQ-561-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494709?ONDATE=10.12.2021%2000>

⁵⁰ "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵⁰gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022 yildagi PF-81-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5884143>

⁵¹ "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵¹gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

⁵² 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur – xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashning yangi shakli. 18.08.2022. <https://paxtakor29.uz/?p=3200>

mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarga o'qitish, ish bilan ta'minlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyojmandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagani, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lami yetarli emasligi, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish tizimi joriy etilmagani kabilar shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni hal etish bugungi kunda mamlakatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish yo'lidagi asosiy vazifalar hisoblanadi⁵³.

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi yotibdi. Xususan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish, xotin-qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalarini muhokama qilish, bu borada faoliyat olib borayotgan amaliyotchi mutaxassis hamda ekspertlarning fikr-mulohazalarini o'rganish asosiy maqsad etib belgilangan. O'z navbatida, gender tengligining buzilishiga olib kelayotgan erta turmush va erta nikoh, oilaviy-maishiy tazyiq hamda zo'ravonlik, ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish kabi mavjud muammolarni o'rganish va ularga maqbul yechimlar topish ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu tufayli har bir ekspert va amaliyotchi mutaxassislarning gender tengligini ta'minlash bo'yicha

⁵³ Maxkamova Z. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 5.

bildirayotgan fikrlari, berayotgan takliflari, ilgari surayotgan g'oyalari muhim hisoblanadi⁵⁴.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi besh yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni taziyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Xotin-qizlarni taziyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori⁵⁵, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmonlari shular jumlasidan.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda esa 35 foizga yetdi⁵⁶.

Albatta, yutuqlar salmoqli. Lekin gender tengligini ta'minlashda tizimli islohotlar va ta'sirchan chora-tadbirlarni talab qiluvchi muammolar ham haligacha mavjud. Jumladan, xotin-qizlarning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi faoliyati to'g'risida jamiyatdagi salbiy qarashlar ularning siyosiy jarayonlarda o'z g'oyalarini ilgari surishiga to'sqinlik qilmoqda.

Aksariyat hollarda xotin-qizlarga iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan va haq to'lanmaydigan uy xo'jaligi ishlari yuklatilmoqda. Ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda. Ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan

⁵⁴ Egamberdiyeva N. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 6.

⁵⁵ "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5466673>

⁵⁶ Gender tenglik doimo e'tiborda. 16.10.2023. <https://www.jtsu.uz/uz/e/blog/2262-gender-tenglik-doimo-e-tiborda>

xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda⁵⁷.

Shunday qilib, bugun gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish, erkaklar bilan bir qatorda ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, xotin-qizlarga eskicha an'anaviy munosabat hamda shakllangan stereotiplarni yo'qotish, tazyiq, zo'ravonliklarning oldini olish, shuningdek, uni vujudga keltiruvchi sabablarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan uzviy ishlar davom etmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarni e'zozlash, munis opa-singillarni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqat aytilgan bo'ladi⁵⁸.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. 22.04.2024. <https://oltinsoy.uz/uz/blog/gender-tengligi/920>
2. Maxkamova Z. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 4.
3. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida. 11.01.2023. <https://parliament.gov.uz/articles/287>
4. Bishkekda Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari o'rtasidagi muloqot yig'ilishi bo'lib o'tmoqda. 23.05.2024.

⁵⁷ Egamberdiyeva N. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 7.

⁵⁸ Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. 22.04.2024. <https://oltinsoy.uz/uz/blog/gender-tengligi/920>

<https://kun.uz/news/2024/05/23/bishkekda-markaziy-osiyo-davlatlari-yetakchi-ayollari-ortasidagi-muloqot-yigilishi-bolib-otmoqda>

5. Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining ilk uchrashuvi bo'lib o'tdi. 24.12.2020. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/24/central-asia/>

6. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494849>

7. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O'RQ-561-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494709?ONDATE=10.12.2021%2000>

8. "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022 yildagi PF-81-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5884143>

9. "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

10. 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur – xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashning yangi shakli. 18.08.2022. <https://paxtakor29.uz/?p=3200>

11. Egamberdiyeva N. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 15.09.2022. B. 6.

12. "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5466673>

13. Gender tenglik doimo e'tiborda. 16.10.2023. <https://www.jtsu.uz/uz/e/blog/2262-gender-tenglik-doimo-e-tiborda>